

Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2025-yil yanvar-oktabr oylari uchun


- I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Xorazm viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-noyabr holatiga ko'ra viloyatda 3 610 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda, shundan 657 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 18,2 %) Urganch shahriga, 418 tasi (11,6 %) Urganch tumaniga, 389 tasi (10,8 %) Xonqa tumaniga, 332 tasi (9,2 %) Qo'shko'pir tumaniga va 272 tasi (7,5 %) Xiva tumaniga to'g'ri keladi.

Viloyatda 2025- yilning yanvar-oktabr oylarida 942 ta yangi sanoat korxonalari tashkil qilingan bo'lib, shularning 135 tasi Urganch shahriga, 117 tasi Xonqa tumaniga, 104 tasi Urganch tumaniga, 91 tasi Xiva tumaniga to'g'ri keladi.

Korxonalar soni
1-noyabr holatiga ko'ra



II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 27 143,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,6 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	27 143,0	108,6
Urganch shahri	4 077,3	110,4
Xiva shahri	409,1	107,2
tumanlar:		
Bog'ot tumani	623,5	111,3
Gurlan tumani	612,1	100,3
Qo'shko'pir tumani	737,7	110,9
Urganch tumani	1 220,9	110,0
Hazorasp tumani	580,2	107,1
Tuproqqal'a tumani	11 750,3	104,4
Xonqa tumani	1 014,7	107,5
Xiva tumani	579,7	109,2
Shovot tumani	902,9	105,4
Yangiariq tumani	731,0	103,4
Yangibozor tumani	916,8	112,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (192 432,4 ming so'm), Urganch shahrida (26 019,3 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (13 268,1 ming so'm) sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija Yangibozor tumanida (111,0 %), Bog'ot tumanida (109,1 %), Qo'shko'pir tumanida (109,0 %), Urganch shahrida (108,6 %) va Xiva tumanida (107,0 %) qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-oktabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 26 160,5 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (96,38 %) ni tashkil etgani holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 3,8 mlrd so'm (0,01 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 787,0 mlrd so'm (2,9 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 191,6 mlrd so'm (0,71 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-oktabr oylarida





III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda 86 717,8 tonna paxta tolasi (2024-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 9,2 % ga ko'paygan), 88 903,3 tonna shakar (45,2 % ga kamaygan), 2 679,3 tonna o'simlik yog'i (42,7 % ga kamaygan), 35 981,7 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (28,1 % ga ko'paygan) hamda 75 846 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) (5,8 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar- oktabr*	2024-yil yanvar- oktabr*	2025-yil yanvar- oktabr
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	69 323	80 541	75 846
Maxsus yengil avtomobillar, dona	18 012	20 204	42 330
Paxta tolasi, t	72 130,9	82 930,4	86 717,8
Shakar, t	219 329,6	167 280,0	88 903,3
O'simlik yog'i, t	4 848,3	4 674,6	2 679,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	40 355,5	28 094,8	35 981,7
Paxta chigiti, t	119 789,2	130 502,1	135 404,7
Paxtadan yigirilgan ip, t	26 023,3	33 095,9	32 883,0

**2023-2024-yillarning yanvar-oktabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,2 % (2024-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,8 % (2024-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,3 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2024-yilning yanvar-oktabr oylarida 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 40,5 % (38,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,9 % (5,8 %), quyi texnologiyali 49,9 % (52,7 %) ni tashkil etgan.

Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan





Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar-oktabr oylarida

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida 75 846 dona " Damas " (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga kamaygan), 42 330 dona maxsus yengil avtomobillari (2,1 martaga oshgan) ishlab chiqarildi.



Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan
ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar, donada
yanvar-oktabr oylarida





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 89,4 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 129, 5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr*	2024-yil yanvar-oktabr*	2025-yil yanvar-oktabr
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	1 199,9	1 072,5	958,9
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	1 199,9	1 072,5	958,9
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>	0	0	0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	84,8	75,0	97,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 27,7 % ga ko'payganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 18,1 % ga kamayganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 36,5 % ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr*	2024-yil yanvar-oktabr*	2025-yil yanvar-oktabr
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	5 029 685,0	16 012 915,0	13 107 146,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv	121 080 881,0	142 452 682,0	181 911 700,0

bilan ta'minlash
bo'yicha
xizmatlar, ming so'm

Xavfsiz chiqindilarni
yig'ish bo'yicha
xizmatlar, ming so'm

17 718 841,0


34 179 799,0

46 648 547,0

**2023-2024-yillarning yanvar-oktabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 393,9 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,6 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 21,4 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Xorazm viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha



statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslar bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
U. Tadjimuratov
62 227-77-88 (9010)

Manzil:

